

TURKIYADAGI ZILZILALARNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Musurmonqulov Asadbek Shavkatjon o'g'li

Guliston davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiyadagi zilzilalarning iqtisodiyotga ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Turkiya, zilzila, iqtisodiyot, marketing, import, eksport, transport.

Turkiyaning janubi-sharqiy qismidagi shaharlarda sezilarli vayronagarchilik yuz berdi. Deyarli 6 ming bino vayron bo'ldi, ayniqsa, transport infratuzilmasi zarar ko'rdi. Iskenderun portida yuzaga kelgan yong'in har qanday yuk tashish operatsiyalarini cheklab qo'ydi. OAVda Boku-Tbilisi-Jayhon neft quvuriga yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar haqida ma'lumot e'lon qilindi. Ma'lum bo'lishicha, magistral saqlanib qolgan va ishlashda davom etmoqda. Biroq quvur operatori "Botaş International Anonim Şirketi" neftni quvurdan tankerlarga o'tkazishni to'xtatdi. Odatda, Jayhandagi terminal kuniga 650 ming barrel neftni qayta ishlagan. Temir yo'l transporti harakati deyarli to'xtamadi, ayrim uchastkalar bundan mustasno. Aviatsiyadagi vaziyat ancha qiyin edi. Zilziladan oldin, ya'ni 5-fevral kuni "Turkish Airlines" mamlakatning g'arbiy va markaziy qismida qor yog'ishi kutilayotgani sababli 170 ga yaqin reysni bekor qildi. Turkiya janubi-sharqidagi aeroportlar orasida faqat bittasi zarar ko'rgan. Yillik yo'lovchilar soni 1 mlnga yaqin Hatay aeroportida uchish-qo'nish yo'lagi yarmiga yorilib ketgan. Shuningdek, Qahramanmarash va Gaziantep aeroportlari yopildi. Jahon iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi. 6-fevraldayoq jahon bozorida neft narxi ko'tarila boshladi. Bunga Turkiyadagi zilzila va Iskenderun portida neft tashishning to'xtatilishi asosiy sabab bo'ldi. 7-fevral kuni o'sish bir necha o'n sentdan bir necha dollargacha tezlashdi: Brent nefti fyucherslari bir barreli uchun \$2,70 ga ko'tarilib, \$83,69 ga, WTI fyucherslari esa \$3,03 ga ko'tarilib, barreli uchun \$77,14 ga yetdi. Aslida, neft narxining oshishiga bir vaqtning o'zida bir nechta omillarning mos kelishi sabab bo'lgan, deb yozadi "Bloomberg". Zilzilaning O'zbekistonga ta'siri qanday. Iqtisodchi Otabek Bakirovning qayd etishicha, 2023-yilda Turkiya iqtisodiyoti 3% atrofida o'sishi prognoz qilingandi. Endi o'sish yo nol atrofida yoki xatto manfiy ham bo'lishi mumkin. Turkiya O'zbekistonning eksport bo'yicha uchinchi, import bo'yicha beshinchi savdo hamkori hisoblanadi. O'tgan yili O'zbekistonning mamlakat bilan tashqi savdo aylanmasi \$3,22 mlrd.ni tashkil etgan. 2022-yilda busiz ham eksport va import hajmi qisqara boshlagandi, deydi iqtisodchi. Zilzila oqibatida sanoat imkoniyatlari va iste'mol talabining qisqarishi ham eksportni, ham importni kamaytiradi. Turkiya pul

o'tkazmalari hajmi va mehnat migrantlari bo'yicha O'zbekistonga sezilarli ta'sirga ega. Mehnat migrantlari soni bo'yicha, kiruvchi va chiquvchi o'tkazmalar umumiy hajmi bo'yicha Rossiya va Qozog'istondan keyingi o'rinni egallaydi. 2022-yilning to'qqiz oyida O'zbekistonda o'zlashtirilayotgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 10%dan ziyodi yoki \$700 mlni Turkiya hissasiga to'g'ri kelgan. 2021-yilda mamlakatning O'zbekistonga kiritgan sarmoyasi \$1,2 mlrd.dan oshgan. Umuman, iqtisodchi Turkiyadagi zilzilani anomal sovuq va energetika inqirozidan keyingi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun navbatdagi "qora oqqush" deb hisoblash mumkinligini qayd etgan. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) mutaxassislari Turkiyada sodir bo'lgan zilzila O'zbekiston uchun oqibatlarini baholadi. Turkiyadagi zilzila oqibatlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri tashqi savdo, sarmoya, mehnat migratsiyasi va yalpi ichki mahsulot kabi sohalar bo'yicha baholandi. 2022 yilda O'zbekistonning Turkiyaga eksporti (1,5 mlrd dollar) asosan xomashyo (mis, rux va plastmassa), importi (1,7 mlrd dollar) esa mashina va uskunalari, kimyo, pigmentlar va farmatsevtika mahsulotlaridan iborat bo'ldi. Zilzilalarning halokatli oqibatlarini hisobga olgan holda, tahlilchilar 2023 yilda mamlakatlar o'rtasidagi tovar aylanmasidagi ehtimoliy o'zgarishlarni aniqladilar.

Zilziladan zarar ko'rgan hududlarni tiklash bo'yicha keng ko'lamli loyihalar O'zbekistondan mis, rux, plastmassa, alyuminiy va oziq-ovqat mahsulotlari importiga talabni oshirishi mumkin. To'qimachilik sanoatining markazlaridan biri bo'lgan Qahramonmarash zilziladan qattiq zarar ko'rgani uchun mavjud vaziyat Turkiyaga paxta va ip-kalava eksportiga (2022 yilda 523,3 mln bo'lgan) salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'z navbatida, Turkiyadan olib kelingan rang beruvchi pigmentlar va gazlamalar tanqisligi tufayli O'zbekistonda to'qimachilik ishlab chiqarish zarar ko'rishi mumkin. Turkiyadagi zilzila fonida davlat xarajatlarining oshishi va inflyatsiyaning keskin oshishi mehnat muhojirlari daromadiga ta'sir qilishi va bu mamlakatdan pul o'tkazmalari (2021 yilda 230 mln) oqimini kamaytirishi mumkin. Turkiyada sodir bo'lgan zilzilaning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri The Thomson Reuters Trust Principles tomonidan 8 fevralda taklif qilingan farazlarga asoslangan uchta ssenariy asosida baholandi. Birinchi ssenariyga ko'ra, 2023 yilda Turkiya YAIMdagi o'sish 0,6 f.p.ga kamayishi taxmin qilinmoqda. Shuningdek, YAIM o'sishining kutilayotgan 5 foizdan, ikkinchi va uchinchi ssenariylarga ko'ra, YAIMning 1 f.p. va 2 f.p. ga qisqarishi ko'rib chiqiladi.

Xulosa:

Turkiya janubi-sharqida 7,8 magnitudali kuchli zilzila sodir bo'ldi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu mamlakatda 1939-yildan buyon yuz bergan eng kuchli zilziladir. "Forbes" nashrining qayd etishicha, katta ehtimol bilan (78%) yetkazilgan zarar miqdori \$1 mlrd.dan oshadi. "Zilzilaning oqibatlari hali ham hisoblanmoqda, biroq Turkiyaning 14–15 mln kishi istiqomat qiladigan 10 viloyati bu kataklizmdan

jabr ko‘rdi”, — dedi Zamonaviy Turkiya tadqiqotlari markazi katta tahlilchisi Yevgeniya Gaber. “USGS” ma’lumotlari taxminiy iqtisodiy yo‘qotishlar Turkiya yalpi ichki mahsulotining 1–10%ini tashkil etishini ko‘rsatmoqda. Eng ko‘p jabr ko‘rgan viloyatlar aynan sanoat markazlariga to‘g‘ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gures, Murat „Live Updates: Powerful Quake Kills Hundreds in Turkey and Syria“. The New York Times (5-fevral 2023-yil).[1]
2. Marcus, Lilit „Ancient castle used by Romans and Byzantines destroyed in Turkey earthquake“ (en). CNN (6-fevral 2023-yil). [2]
3. Boncuk, Mehmet „Tarihi cami depremde hasar gördü“. Sabah. Qaraldi: 8-fevral 2023-yil.[3]
4. „Gaziantep'te, depremde 6 tren devrildi, kayalar raylara düştü“ (tr). Hürriyet (13-fevral 2023-yil).[4]
5. „Despite an enormous rescue effort, many people are waiting for help“. The New York Times (7-fevral 2023-yil).[5]